



PROSODIK VA EKSTRALINGVISTIK VOSITALARNING MULOQOTDAGI O‘RNI

Mahliyo Darvishaliyeva

Namangan davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada kommunikatsiya jarayonida nutqqa xos prosodik va ekstralingvistik vositalarning voqelanishi misollar orqali tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: muloqot muhiti, nutq vaziyati, prosodika, ekstralingvistika, paralingvistik vositalar.

Аннотация: В статье на примерах анализируется появление речевых просодических и экстралингвистических средств в процессе общения.

Ключевые слова: среда общения, речевая ситуация, просодия, экстралингвистика, паралингвистические средства.

Abstract: The article analyzes the emergence of speech prosodic and extralinguistic means in the process of communication using examples.

Key words: communication environment, speech situation, prosody, extralinguistics, paralinguistic means.

Kommunikatsiya jarayonida nutqqa xos prosodik pauzalar va turli psixofiziologik hodisalarni kuzatish mumkinki, (tembr, musiqiylik, to‘xtam, yig‘i-sig‘i, yo‘tal, kulgi, turli xil nafas olishlar, turli qiliqlar, imolar, ishoralar va h.k.) ularni tilshunoslikdagi prosodik va ekstralingvistik vaziyatlar, paralingvistik holatlar sarasiga kiritishimiz mumkin.



Prosodika – bu nutqning balandligi, undagi tovush va bo‘g‘inlarning qattiq va kuchliligi, uning tembri, toni kabi ritmik-intonatsion tomonlarining umumiy nomlanishi, ug‘ularda aks etuvchi jarayon bo‘lsa, ekstralingvistika, tom ma’noda, so‘zlovchining nutqqa o‘zgacha va turli xil psixofiziologik hodisalarni kiritishidir.

Prosodik va ekstralingvistik vositalar yordamida nutq oqimi boshqariladi, muloqotning til vositalari tejaladi, ular esa, o‘z navbatida, nutqiy ifodani to‘ldiradi, go‘zal qiladi, hissiy holatni ifodalaydi.

Nutqning intonatsion qurilishini nafaqat eshita olish, balki uni tinglay bilish, ovozning kuchi va tonini, nutq tezligini baholay olish lozim, bularning barchasi bizning his-tuyg‘ularimiz va fikrlarimizni amalda ifodalashga imkon beradi. “Haqiqat so‘zlovchining so‘zlarida emas, balki tinglovchining quloqlaridadir” degan hikmatli so‘z bejiz aytilmagan. Shuning uchun ekstralingvistik va ichki lingvistik faktorlarning munosabati haqidagi masala... doim va asosli ravishda tilshunoslikning eng asosiy masalalaridan hisoblanib kelgan¹.

Darhaqiqat, inson nutqdagi ovoz o‘z ichiga egasi haqidagi ko‘plab ma’lumotlarni oladi. Tajribali mutaxassis ovozga qarab so‘zlovchining yoshi, yashash manzili, salomatlik holati, xulqi va fe’l-atvorini aniqlay oladi. Tabiat odamlarni ajoyib ovozli nutq bilan siylagan bo‘lsa-da, ular nutq tovushlariga go‘zallikni o‘zlari beradilar. Ovoz balandligini keskin almashtirish xususiyatiga ega bo‘lganlar, qoidaga ko‘ra, monoton ohangda so‘zlovchilarga nisbatan, tetikroq, kirishimliroq, ishonchliroq, bilimliroq va yanada yoqimliroq bo‘ladilar.

So‘zlovchi kechirgan his-tuyg‘ular, avvalo, uning ovoz tonida o‘z ifodasini topadi. Unda his-tuyg‘ular, yangrayotgan so‘zning ma’nosiga bog‘liq bo‘lmagan holda, aks etadi. Shunday qilib, quvonch, jahl yoki g‘am-g‘ussa oson anglanadi.

Prosodik va ekstralingvistik vositalar yordamida boshqarilayotgan nutq oqimida:

¹ Накашидзе Н.В. Вербальная интерпретация паралингвистических средств в тексте//сборник научных трудов МГПИИЯ.М. – Тореза 1980, вып. 141. С. – 71.



1. Ovozning kuchliligi va tovushlarning baland va pastligi ham ko'p ma'lumot beradi. Ayrim hissiyotlar, jumladan, intuziazm, quvonch va ishonchsizlik, jahl va qo'rquv ham, odatda, baland ovozda ifodalanadi, ovoz toni, kuchi va balandligi ham keng diapazonida bo'ladi. Qayg'u, tashvish, charchoq kabi tuyg'ular, odatda, yumshoq va past ovozda, har bir fikrning so'ngida intonatsiyaning pasayishi bilan ifodalanadi.
2. Nutqning *tezligi* ham o'zida his-tuyg'ularni aks ettiradi. Agar odam to'liqlangan, bezovtalangan bo'lsa, tez gapiradi, o'zining shaxsiy qiyinchiliklari haqida so'zlaydi yoki bizni nimagadir ishontirishni xohlaydi.
3. Ohista va sokin nutq, eng avvalo, ezilish holati, qayg'u, takabburlik yoki charchoqdan darak beradi.
4. Aksariyat kishilar nutqida sezilarsiz xatolarga yo'l qo'ygan holda, masalan, so'zlarni takrorlab, ularni ishonchsiz yoki noto'g'ri tanlab, fikrni yarimta gap bilan aytib, ixtiyorsiz ravishda o'z tuyg'ularini aks ettiradilar va maqsadlarini ifoda etadilar. Bunday holatlarda, ya'ni so'z tanlashdagi xatoliklar, so'zlovchi o'ziga ishonmaganda yoki bizni hayratlantirishga uringanda ro'y beradi. Odatda nutqiy kamchilik va etishmovchiliklar odam to'liqlanganda yoki u o'z suhbatdoshini aldashga uringan va urinayotganda yana ham ko'proq namoyon bo'ladi.

Modomiki, nutqdagi ovoz va tovushlar tavsifi tananing turli organlari ishiga bog'liq ekan, unda ushbu organlarning holati aks etadi. His-hayajon nafas olish ritmini o'zgartiradi, masalan,:

1. Qo'ruv hiqildoqni bo'g'ib qo'yadi, tovush paychalariga kuch keladi, ovoz "o'tiradi" – chiqmay qoladi.
2. Kayfiyat yaxshi bo'lganda ovoz yanada chuqur va nafislikka boy bo'ladi. U boshqalarni tinchlantiradi va ko'proq ishonchga sazovor bo'ladi.

Shuningdek, teskari bog'liqlik ham mavjud: nafas yordamida his-hayajonga ta'sir etish mumkin. Buning uchun, og'izni keng ochgan holda, shovqin bilan nafas olish tavsiya



etiladi. Agar odam ko'ksini to'ldirib nafas olsa va katta miqdordagi nafasni chiqarib yuborsa, uning kayfiyati ko'tariladi, ovozi esa beixtiyor pasayadi.

Har qanday insonning istaklari, ichki ruhiy holati, temperamenti va xarakteri haqida uning imo-ishoralar ham so'zlashi mumkin. Imo-ishoralarning o'ziga xosligining asosiy qirrasini shundaki, muloqot chog'ida suhbatdoshning biror-bir xususiyati haqida xulosa chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Takesika muloqot chog'idagi teginishlarni o'rganadi. Muloqotning takesik vositalariga: *qo'l berish, qarsak chalish, o'pish* shaklidagi dinamik holatlar kiradi. Olimlarning isbotlanishicha, dinamik teginishlar qo'zg'alishning zaruriy tabiiy shakli hisoblanadi.²

Muloqotda dinamik teginishlardan foydalanish ko'plab omillar bilan izohlanadi: *a) sheriklarning ijtimoiy holati; b) ularning yoshi; v) jinsi; d) tanishlik darajasi.*

SHaxsning takesik vositalardan nomuvofiq foydalanishi muloqotdagi qarama-qarshilikka olib kelishi mumkin. Masalan, elkaga qoqish faqatgina yaqin munosabatlar, jamiyatdagi ijtimoiy ahvoli teng bo'lgan sharoitlarda mumkin.

Eng keng tarqalgan takesik vosita – har qanday uchrashuv va xayrlashuvning zaruriy belgisi – qo'l berishdir.

Qo'l berish muloqotning eng qadimgi – ibtidoiy shaklidir.

Ibtidoiy odamlar uchrashganlarida bir-birlariga ochiq kaftlari bilan qo'l uzatganlar, bu ularning qurolsiz ekanini bildirgan. Bu imo-ishora vaqtlar o'tishi bilan turli o'zgarishlarga uchradi: *qo'lni havoda silkitish, qo'lini ko'ksiga qo'yish va xayrlashayotganda qo'l berish* kabi variantlari paydo bo'ldi.

Ko'pincha qo'l berish, ayniqsa, uning turli ko'rinishlari, shiddati va davomiyligi juda ko'p narsani anglatishi mumkin.

² <http://www.worklib.ru/dic>; <http://vocabulary.ru/dictionary/978/word/prosodicheskie-harakteristiki>.



Qo‘l berish uch turga bo‘linadi:

1. Etakchi (*qo‘l tepada, kaft pastga qaragan bo‘ladi*).
2. Tobe (*qo‘l pastda, kaft tepaga qaratilgan bo‘ladi*).
3. Teng huquqli. (*qo‘l kafti vertikal holatda bo‘ladi*).

Etakchi qo‘l berish, uning eng agressiv shakli hisoblanadi. Etakchi (hokim) qo‘l berishda bir odam boshqa odamga muloqot jarayonida boshchilik qilishin haqida ma‘lumot beradi. AQShda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 78% yuqori davlat amaldorlari nafaqat birinchi bo‘lib qo‘l uzatganlar, balki, qo‘l berishning etakchilik usulidan foydalanishgan.³

Tobe qo‘l berishga, odam tashabbusni boshqaga berishni, uning ushbu vaziyatda o‘zini xo‘jayindek his qilishini xohlagan hollarida zarurat tug‘iladi.

Xullas, tilning ichki tuzilishigagina e‘tibor qaratadigan an‘anaviy tilshunoslikda muloqot, aloqa-aralashuvda “tilning ichki tuzilishiga kirmaydigan, ma‘lum axborot tashish uchun xizmat qiladigan juda ko‘p vositalar lisoniy tahlildan chetda qoladi”.⁴ Noverbal vositalar nutqiy muloqotda verbal ifodaning o‘rnida qo‘llanib, diologik nutqning yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etar ekan, har bir tildagi aloqa-aralashuvning bu kabi vositalarini o‘rganish e‘tibordan chetda qolmasligi kerak. O‘zbeklarning aloqa-aralashuvini kuzatar ekanmiz, ma‘lum axborot tinglovchilarga etkazish jarayonida qo‘l, bosh, elka, gavda, yuz harakatlari; ovozning balandligi, past, cho‘ziq, to‘xtalib talaffuz qilinishi ahamiyatli sanaladi.⁵

Voqealar ro‘yobi mohiyatni yoritigani kabi, prosodik va ekstralingvistik vositalarning xususiyatlarini o‘rganish orqali har qanday tilning tabiati ochiladi. Shunday ekan, o‘zbek tilidagi bunday ahamiyatli jarayonlarni to‘liq o‘rganmasdan turib umumo‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari haqida atroflicha fikr yuritish mumkin emas.

³ http://icefoto.narod.ru/germ_aks.htm; <http://lingvisticheskiy-slovar.ru/description/prosodiia/505>; <http://www.puzikov.com>

⁴ Николаева Т.М. Невербальные средств человеческой коммуникации и их место переподавания языка// Роль и место страноведения в практике преподавания русского языка как иностранного. М.: МГУ, 1969, с-60.

⁵ Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. Тошкент. «Фан», 2008. 5-бет.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Накашидзе Н.В. Вербальная интерпретация паралингвистических средств в тексте//сборник научных трудов МГПИИЯ.М. – Тореца 1980, вып. 141. С. – 71.
2. <http://www.worklib.ru/dic>; <http://vocabulary.ru/dictionary/978/word/prosodicheskie-harakteristiki>.
3. http://icefoto.narod.ru/germ_aks.htm; <http://lingvisticheskiy-slovar.ru/description/prosodiia/505>; <http://www.puzikov.com>
4. Николаева Т.М. Невербальные средств человеческой коммуникации и их место в переподании языка// Роль и место страноведения в практике преподавания русского языка как иностранного.М.:МГУ,1969, с-60.